SA`DULLA HAKIM GUMANIZMI

Guliston davlat pedagogika instituti
O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi
1-bosqich magistranti Ravshanova
Odina Farhod qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zabardast shoir, publisist Sa‘dulla Hakim ijodining o‘ziga xos tomonlari, publisistik asarlari, dostonlari va bir qator she‘rlarining tahlillari haqida ayrim mulohazalar keltiriladi. Sa‘dulla Hakimning she‘rlaridagi soddalik, xalqchillik, so‘z ohangi, tabiat manzaralari, tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ining so‘lim tabiati,bolaligi o‘tgan go‘shalari haqida bir qator fikrlar yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** she`riyat, gumanizm, tasvirlash, xalqona, zamonaviy, vatan, she`r, shoir.

Sa`dulla Hakim 1951-yil 25-martda Jizzax viloyatining Garasha qishlog`ida tavallud topgan.Uning bolaligi, yoshligi so`lim Garasha qishlog`ida, tog`lar bag`rida o`tdi.Sa`dulla Hakimdagi shoirona qalb, undagi iste`dod bolaligidan namoyon bo`la boshlagan. Sa`dulla Hakimning ilk she`riy to`plami “Hamal tonglari” nomi bilan 1981-yilda chop etilgan. Shundan keyin “Sen kutgan bahor”, “Yoz oqshomi”, “Ona so`z”, “Saylanma”, “Ko`ngil yuzi “ kabi she`riy to`plamlari nashr etilgan. “Esimda qolgan kunlar”, “Atom qariga sayohat” kabi publistik asarlari ham bor.Uning she`rlarini o`qir ekansiz, Vatanimizni yanada ko`proq seva boshlaysiz, Garasha tog`laridagi toza havoni, soylardagi sharqiroq suvlarni his etasiz. Shoirning eng go`zal tashbehlari, kuzatuvlari asosidagi hikmatli fikrlari tabiat bilan bog`liq. Shoir Nurota tog`lari, Garasha qishlog`ini ta`riflar ekan, mehri iyib “Bulutini-qalpoq, qorini-chopon, yomg`irni-ko`ylak qilib kiyganman” –deydi.Yana bir go`zal ta`rifga qarang:

“Olmalar lablarin qirmizga bo`ylab,
Yaproq durrasidan mo`ralab boqar”.[1,15-b.]

Shoir she`rlaridagi bu go`zal tasvirlar shunchaki badiiy topilmalar uchun emas. Bunda shoirning tabiatga muhabbati jilvalanib,sezilib turadi.Shoirning “Garashaliklar qo`shig`i”, “Oq qoya guli”, “Jiyda pishig`i” she`rlarida ona tabiatga,Ona Vatanga muhabbati yaqqol sezilib turadi.

Tuproq nur sochib yotar,

Tovlanar soy toshlari
Jiydalar burqsib tutar,
Yer qizigan chog`lari.
Tunda osmon yelmoy separ,
Gugurt chaqar sarsari.
Jiydalar tutab yotar
Gullar yongan chog`lari.
Yulduzlar – tutantiriq,
Kuz oyni yoqqan chog`lari,
Porlab ketar shamolda
Qip – qizil chog`li shoxlar! [2,60-b.]

Jiyda pishig`i mavsumini ko`z oldimizga keltiradigan bo`lsak, quyoshli O`zbekistonimizda tuproqning nur sochib yotishi, quyosh nurlarida soydagi toshlarning tovlanishi hayolimizga keladi.Tunda osmon yelmay separ va sarsari gugurt chaqadi. Kuz yulduzlarni tutantiriq qilib, Oyni yoqqan chog`larida kuz gullari yonayotgandek tuyuladi. Har shamol ko`tarilganda, jiydaning shoxlari silkiganda jiydaning pishgan mevalari ko`rinadi.Shoir she`rda jiyda pishig`i vaqtini betakror tasvirlaydi.

Shoirning "Garashaliklar qo`shig`i" she`rida Vatanga, onaga, inson qadriga bo`lgan tuyg`ularni yaqqol ko`rish mumkin. Sa`dulla Hakimning ushbu she`ridagi "Yurt qadriga yetmaganni chaqmoq ursin" misrasida ona Vatanning qadriga yetmaganlarga, Vatan uchun yonib kuymaganlarga murojaatini ko`rish mumkin.

Shoir "Umrim mazmuni" she`rida shunday yozadi:
Vatanim – nur o`pgan muqaddas kenglik,
Kengliksiz yasholmasman.
Shodligim – ilm va mehnatda tenglik,
Tengsizlik yasholmasman.
Qudratim – toshda gul undirgan elim,
Elimsiz yasholmasman.

Elini o`z qudratining manbai deb uqqan shoir, vatanni nur o`pgan kenglik deb bilarkan, shularsiz hayot hayot emasligini his qiladi. [3,7-b.]

Bir qo`shiq bor – qo`shiqlarning sarasi,
Shu qo`shiqni aytmoqchiman,
Qalbim shunga undaydi.
Yurt madhidan boshlanib u,
Yurt madhida tugaydi.

Sa`dulla Hakim ijodini o`qib, o`rganar ekansiz tabiatga, ona Vatanga, yor-birodarlarga jo`shqin tuyg`ularni his eta boshlaysiz. Shoirning she'rlari, dostonlari yuqorida aytganimizdek xalqona, sodda, yosh-u qari birdek tushunadigan qilib yozilgan. Sa`dulla Hakim ijodi haqida xalq shoiri Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov ,Mahmud Toir, O`tkir Rahmat, Uyg`un Ro`ziyev, Abdunabi Boyqo`ziyev ,Oygul Suyundikova, Farog`at Xudoyqulova kabi elimizning taniqli shoir va yozuvchilari Ibrohim G`afurov, Qozoqboy Yo`ldosh, Najmiddin Komilov, Saydi Umirov, Ahmad Otaboy, To`lqin Eshbek, Xolmurod Salimov, Dilmurod Xoldorov kabi olimlar maqolalar yozganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Alimbekov, *"So`z chamani ichra navo ko`rguzub"*(monografiya).T. "Adabiyot", 2022
2. Sa`dulla Hakim *"Tanlangan asarlar"* T. Sharq. 2022
3. Sa`dulla Hakim *"Yurt o`g`loni"*, T. "Mashhur-Press". 2019

4. http://ziyo.uz/Sa`dulla_hakim.jpg